

2019 yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Raqamlar:




Asosiy kapitalga
kiritilgan
investitsiyalar
7 994,9 mlrd. so‘m

O‘sish sur‘ati 190,3 %

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 7 994,9 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 190,3 % tashkil etdi.

Moliyalashtirishning manbalari bo‘yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o‘zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi chet el investiyalari va kreditlari – 2 460,7 mlrd. so‘m (o‘sish 440,7) yoki jami investitsiyaga nisbatan 30,8 %, korxonalarining va aholining o‘z hisobidan esa 2 479,2 mlrd. so‘m (o‘sish 128,2) yoki 31,0% jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hisobiga to‘g‘ri keldi.


Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar taqsimlanishi



2019 yil yanvar-iyun oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 1 966,9 mlrd. so‘m, jami investitsiyalardagi ulushi 24,6 foiz.

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa 6 027,9 mlrd. so‘m, jami investitsiyalardagi ulushi 75,4 foizni tashkil qildi.


Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmiga nisbatan moliyalashtirish manbalarining tarkibi, %



Mos ravishda, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga 1 966,9 mlrd. so‘m investitsiyalar Respublika byudjeti mablag‘lari, tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari, O‘zR kafolati ostida xorijiy kreditlar va suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga tashkil etildi.

O‘z navbatida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga 6 027,9 mlrd. so‘m investitsiyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar, korxonalarining o‘z mablag‘lari, aholi mablag‘lari va tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobiga shakllangan.


Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, umumiy hajmdagi ulushi %



2019 yil yanvar-iyun

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi bo'yicha 3 800,4 mlrd. so'm yoki 47,5 % qurilish-montaj ishlariga o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskunalar va jixozlarni xarid qilishga 3 430,1 mlrd. so'm yoki 42,9 % va boshqa xarajatlarga 764,4 mlrd. so'm yoki 9,6 % investitsiyalar o'zlashtirilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan ulushi, foizda



- Tog'-kon sanoati 14,1 %
- Uy-joy qurilish 12,9 %
- Tashish va saqlash 5,1 %
- Suv ta'minoti 0,4 %
- Ishlab chiqaradigan sanoat 36,0 %
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 1,2 %
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 4,9 %
- Qurilish 6,8 %
- Ta'lim 1,3 %
- Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalarni ta'mirlash 0,9 %
- Boshqa faoliyat turlari 16,3 %


● Tog'-kon sanoati ● Uy-joy qurilish ● Tashish va saqlash ● Suv ta'minoti ● Ishlab chiqaradigan sanoat
● Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish ● Qishloq, urmon va baliq xo'jaligi ● Qurilish ● Ta'lim
● Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalarni ta'mirlash ● Boshqa faoliyat turlari

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqoridagi diagrammada ko'rsatib o'tilganidek ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 2 881,2 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 36,0 foizi o'zlashtirilgan.

Shuningdek asosiy kapitalga investitsiyalarning eng ko'p investitsiya hajmlari tog'-kon sanoatiga – 14,1 %, uy-joy qurilishiga – 12,9 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligiga – 4,9 %, qurilishga – 6,8 %, tashish va saqlashga – 5,1 %, ta'limga – 1,3 %, suv ta'minotiga – 0,5 %, ulgurji va chakana savdoga – 0,9%, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga – 1,2% va boshqa faoliyat turlariga – 16,3 % to'g'ri keladi.


Turar joy qurilishiga investitsiyalar aholini na'munaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshiririshi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog'liq.

Xorijiy investitsiya va kreditlar



2019 yil yanvar-iyun oylarida 2 460,7 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy xajmining 30,8% xorijiy investitsiya va kreditlari hisobidan amalga oshirilgan. O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 440,7 %ni tashkil qilgan. Shundan xorijiy investitsiyalarning hajmi 2 280,5 mlrd. so'mni tashkil qilgan (o'sish sur'ati – 978,2 %).

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tumanlar kesimida o‘shir sur’ati



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga, tumanlar kesimida

Hududlar nomi	Aholi jon boshiga, ming so'mda	2018 yil yanvar-iyunga nisbatan foizda
Jami viloyat	2 749,5	187,8
Nurafshon sh.	14 612,4	524,5
Olmaliq sh.	8 257,3	167,0
Angren sh.	2 102,3	89,5
Bekobod sh.	3 330,9	150,4
Ohangaron sh.	9 760,0	292,4
Chirchiq sh.	5 181,5	240,7
Yangiyo'l sh.	528,2	29,1
tumanlar:		
Oqqo'rg'on	1 907,4	241,3
Ohangaron	9 786,2	573,5
Bekobod	293,0	113,5
Bo'stonliq	2 858,7	172,8
Bo'ka	334,4	94,3
Quyichirchiq	408,8	120,1
Zangiota	2 305,6	115,2
Yuqorichirchiq	2 073,7	143,7
Qibray	3 830,4	271,8
Parkent	719,4	108,2
Piskent	618,9	103,4
O'rtachirchiq	1 528,3	137,3
Chinoz	1 765,6	349,0
Yangiyo'l	1 470,2	171,3
Toshkent	871,8	81,6

